



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**"Iqtidorli yoshlar - intellektual, ijodiy elitani yaratishning kafolati:
akademik mobillik va xalqaro hamkorlik masalalari" mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
AXBOROT XATI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 4-iyuldagagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug'iga asosan joriy yilning 26-aprel kuni Navoiy davlat pedagogika institutida o'tkaziladi.

Anjumanda quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

1.	Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasida iqtidorli yoshlar ishtiroki: milliy va xalqaro tajriba	
2.	Oliy ta'lim tizimida xalqaro va mintaqaviy akademik mobillik istiqbollari	
3.	Ta'limning turli bosqich va yo'nalishlarini raqamlashtirish va yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirishning dolzarb masalalari	
4.	Zamonaviy dunyodagi ijtimoiy jarayonlar va intelluktual yoshlar elitasini shakllantirishdagi uyg'unlik	
5.	Ekologiya va iqlim o'zgarishlari muammosining dolzarblashuvi sharoitida "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish masalalari	
6.	Ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish yoshlar ijodiy, intellektual imkoniyatini ro'yobga chiqarishning muhim omili	

Maqolalarga qo'yiladigan talablar:

Maqola hajmi 5 betgacha, 1,5 intervalda (to'rt tomondan 2 sm, sahifa bichimi A4 formatda), Times New Roman, 14 o'lchamli shriftda. Mavzu bosh harflarda qoraytirilib, varaqning o'rtasida yoziladi; keyingi qatorlarga muallifning familiyasi, ismi va sharifi, ta'lim yo'nalishi, ta'lim muassasasi va hudud nomi yoziladi; annotatsiya va kalit so'zlar 3 tilda (o'zbek, ingliz va rus) ko'rsatiladi; fayl nomini saqlashda muallif familiyasi va sho'ba raqami bosh harflarda yoziladi. (Masalan, TOSHEV1.docx). Maqola ichidagi havolalar [1] shaklida belgilanadi. Maqola so'ngida foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati alifbo tartibida beriladi.

Ro'yxatdan o'tish hamda maqola va tezislarni quyudagi elektron pochta va telegram raqamiga yuborishingiz mumkin. navdpi_konf_iqtidor@mail.ru, tel. 93-157-70-77.

Har bir ishtirokchi uchun sertifikat va to'plamning elektron varianti taqdim etiladi.

Mas'ullar: O'tapov T., Hoshimov A., Mirsanov U., Xushanov A.

Tel: 93-319-65-00, 93-157-70-77, 90-703-65-95

Konferensiya tili: o'zbek, ingliz va rus.



2024-yil 26-aprel,
Navoiy shahri

NSPI.UZ